

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'YEKTLARDA FOYDA SOLIG'I TAHLILI USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Abror Bozarboyevich

Toshkent moliya instituti "Iqtisodiy tahlil" kafedrası

dotsenti, PhD. abdullayev_abror@tfi.uz

ORCID: 0000-0001-8981-6708

IMPROVING INCOME TAX ANALYSIS METHODOLOGY IN BUSINESS ENTITIES

Abdullayev Abror Bozarboyevich

The Department of Economic analysis,

Tashkent Institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan

abdullayev_abror@tfi.uz

ORCID: 0000-0001-8981-6708

JEL Classification: M1, M4, M49

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining soliq tushumlari tarkibida tutgan o'rni, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy natijalariga ta'siri va ahamiyati tadqiq qilingan. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda soliq xarajatlarini optimallashtirish, soliq to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirish, soliq yukini kamaytirishda ilmiy yondashuvlarning zarurligi, soliq tahlilini samarali tashkil etish va amalga oshirish lozimligi qayd etilgan.

Korxonaning soliq to'lovlari va uni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish soliq xarajatlarni optimallashtirish hamda soliq majburiyatlarini muvofiqlashtirish bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga zamin yaratadi. Korxonada soliq to'lovlari xarajatlar tarkibida asosiy ulushlardan birini tashkil etganligi sababli, uni iqtisodiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, maqolada yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining dinamik tahlili, uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar, ularning natija ko'rsatkichi bilan bog'lanish modellari, omillar ta'siri qiymatini

hisoblashda qo'llaniladigan iqtisodiy tahlil usullari bayon qilingan. Foyda solig'i summasiga ta'sir etuvchi omillar sifatida soliq bazasi, soliq stavkasi, soliqqa tortiladigan foyda, chegirilmaydigan xarajatlarni, soliqqa tortilmaydigan daromadlar va imtiyozlar o'rganilgan. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichlarning korxonada sof foydasini shakllantirishdagi ishtiroki ko'rsatib berilgan.

Foyda solig'i summasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisob-kitob qilish metodikasi amaliy ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Bunda iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari tarkibidagi balansli bog'lanish, zanjirli o'rin almashtirish ham iqtisodiy-matematik usullardan integral usulini qo'llashning amaliy jihatlari yoritilgan.

Abstract. This article examines the role of the profit tax from legal entities in the structure of tax revenues, the impact and importance of the financial results of economic entities. It was noted that economic entities need to use scientific approaches, effectively organize and implement tax analysis in order to optimize tax expenses, to reduce the tax burden, make tax payments on time.

The analysis of the company's tax payments and the factors influencing its change lays the groundwork for the adoption of appropriate management decisions on the optimization of tax expenses and coordination of tax obligations. Due to the fact that tax payments are one of the main shares in the structure of expenses in the enterprise, its economic analysis is of great importance. From this point on, the article describes the dynamic analysis of the profit tax from legal entities, the factors affecting its change, the models of their connection with the result indicator, and the methods of economic analysis used in calculating the value of the influence of factors. Tax base, tax rate, taxable profit, non-deductible expenses, non-taxable income and exemptions are studied as factors affecting the amount of profit tax. Also, the participation of these indicators in the formation of the net profit of the enterprise has been indicated.


The method of calculation of the factors affecting the change of the amount of profit tax has been revealed on the basis of practical data. In this, the practical aspects of using the integrated method of economic-mathematical methods, such as balanced connection and chain replacement, which are part of the traditional methods of economic analysis, have been highlighted.

Kalit so'zlar. *solig, soliq to'lovi, soliq stavkasi, soliq yuki, soliq to'lovi tahlili, omilli tahlil, foyda solig'i, soliq solinadigan ba'za, soliqqa tortiladigan foyda, multiplikativ model, additiv model.*

Keywords. *tax, tax payment, tax rate, tax burden, tax payment analysis, factor analysis, income tax, taxable base, taxable profit, multiplicative model, additive model*

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida soliq tizimi tubdan isloh qilindi. Buning natijasida soliq qonunchiligi va ma'murchiligi xalqaro tajribalar asosida takomillashtirildi. Biroq, global iqtisodiy tebranishlar, xalqaro integratsiya jarayonlarining kuchayishi, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish orqali milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati soliq tizimini zamon talablari asosida yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "2026 yilga borib tadbirkorlik sub'yektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish" ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilangan.[1] Bu esa tadbirkorlik sub'yektlarida soliq to'lovlari va soliq xarajatlarini kamaytirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini oshirishga zamin yaratadi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va soliq tizimini xalqaro standartlar va tajribalar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda soliq tushumlari tarkibida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ulushi tobora ortib bormoqda. Jumladan, joriy yil 1 iyul holatiga jami soliq tushumlari tarkibida yuridik shaxslar foyda solig'ining ulushi 26 foizni tashkil etgan holda boshqa soliq turlariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich ekanligini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2022 yil 1 iyul holatiga soliq tushumlari tarkibi, foizda[11]

Foyda solig'i miqdorining oshishiga ushbu turdagi soliq to'lovchilar sonining organligi, soliq ob'ektlari va bazalarining kengayganligi bilan izohlash mumkin. Zero, so'nggi yillarda mazkur soliq turi stavkasining oshishi tendensiyasiga ega emas. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan to'lanayotgan foyda solig'i bevosita ularning moliyaviy natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar boshqaruvida mazkur soliq bilan bog'liq xarajatlarni iqtisodiy tahlillar orqali optimallashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ammo, amaliyotda foyda solig'i summasi, bazasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish uslubiyoti yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu esa xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda soliq to'lovlari hisobi va tahlili bo'yicha metodikalar ishlab chiqish, mavjudlarini esa yangi talablar asosida takomillashtirgan holda amaliyotga

joriy etishni taqozo etmoqda.

Material va metod. Soliq to'lovlarini tahlil qilishda, alohida soliq turlari bo'yicha tahlil metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Macalan, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa soliq turlari tahlili metodikasini takomillashtirish bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Foyda solig'ining tahlili makro darajada davlat soliq xizmati va moliya organlari tomonidan o'tkazilsa, mikro ko'lamda ushu soliqni to'lovchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan amalga oshiriladi.


Soliq to'lovlari tahlilining asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'yektning soliqqlanish jarayonini optimallashtirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Soliq xarajatlarini har tomonlama o'rganib, tahlil qilib, uning natijalariga ko'ra ilmiy asoslangan xulosalar shakllantiriladi hamda

korxonada soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Shundan kelib chiqqan holda, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda soliq to'lovlari tahlilining ob'ekti ular tomonidan to'langan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar hisoblanadi. Soliq to'lovlari tahlilini o'tkazish bir tomondan xo'jalik yurituvchi sub'yektning soliq to'lovlari bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish imkonini bersa, ikkinchi tomondan korxonaning tadbirkorlik faoliyatini to'g'ri rejalashtirish asosida samarali narx siyosatini yuritishga xizmat qiladi. Bu esa, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda daromadlar va foyda ko'rsatkichlarini oshirish imkonini

beradi.

Hozirgi kunda amaliyotda soliq tizimining umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan tizimida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar soliq majburiyatlarini bajarib kelishmoqda. Soliq to'lashning umumbelgilangan tizimida korxonalar to'laydigan asosiy soliq turlaridan bu yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar foyda solig'ining summasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Foyda solig'i summasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagi rasmda keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Foyda solig'iga ta'sir qiluvchi omillar va uni aniqlash modeli¹

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, foyda solig‘iga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatar ekan: mahsulotni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotning tannarxi, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy faoliyatning daromadlar va xarajatlar, favqulotda olingan foyda va zarar, foyda solig‘ining hisobot davridagi stavkasi va boshqa omillar.

Yuqoridagi omillarni ikki guruhga ajratgan holda foyda solig‘iga ta‘sirini hisoblash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi guruh omillari foyda solig‘i summasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘lsa, ikkinchi guruh omillar unga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillardir.

Masalan, mahsulotni sotishdan sof tushumning oldingi yilga nisbatan ko‘payishi, boshqa omillarning o‘zgarishsiz qolishi sharti bilan foyda solig‘i summasini ko‘payishiga olib keladi. Sotilgan mahsulotning tannarxi ko‘rsatkichi esa yuqoridagi shart bilan foyda solig‘i summasini kamaytirishga olib keladi.

Soliq tahlilini har bir soliq to‘lovi turi bo‘yicha omilli tahlil o‘tkazilishi xo‘jalik yurituvchi sub‘yekt uchun zarur deb hisoblaymiz.

Bu o‘rinda iqtisodiy tahlilning an‘anaviy usullaridan hisoblangan balansli bog‘lanish, mutloq va nisbiy farqlash hamda zanjirli bog‘lanish usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, mazkur usullardan foydalanish qulay va amaliyotchilar uchun murakkablik kasb etmaydi.

Foyda solig‘i summasiga eng katta ta‘sir ko‘rsatuvchi omil bu soliqqa tortiladigan foyda bo‘lib hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan foyda (STF) jami daromadlarga (JD) chegirilmaydigan xarajatlarni (CHX) qo‘shib so‘ngra soliqqa tortilmaydigan daromadlar (STD), imtiyozlarni (I) ayirib tashlash orqali aniqlanadi.

$$STF=JD+CHX-STD-I \quad (1)$$

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, bu yerda balansli bog‘lanish mavjud bo‘lib, jami daromadlar va chegiriladigan xarajatlar soliqqa tortiladigan foydaga to‘g‘ri ta‘sir qilsa, soliqqa tortilmaydigan daromadlar (dividend, royalti va foiz), hisobot davrida foyda solig‘ini hisoblashda chegiriladigan xarajatlar hamda qonunchilikda belgilangan imtiyozlar natijaga teskari ta‘sir etadi. Mana shu omillarning har birini yana alohida tarkibiy qismlari bo‘yicha chuqur tahlil qiladigan bo‘lsak, unda ham balansli bog‘lanish usulini qo‘llab, tahliliy xulosalar qilishimiz mumkin bo‘ladi.

Foyda solig‘i summasi (FSS) soliqqa tortiladigan foydaga (STF) soliq stavkasi (SS)ni ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi.

$$FSS=STF*SS \quad (2)$$

Bundan ko‘rinib turibdiki, bu yerda natija ko‘rsatkichi va unga ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘lanish multiplikativ modelga asoslangan bo‘lib, omillar ta‘sirini hisoblash uchun zanjirli bog‘lanish yoki farqlash usulini qo‘llashimiz mumkin. Bundan tashqari indeks usuli, integral, logorifm usullari yordamida ham natijaga ya‘ni foyda solig‘i summasiga omillar ta‘sirini aniqlash imkoni mavjud.

Foyda solig‘i summasini o‘zgarishiga omillar ta‘sirini iqtisodiy-matematik usullaridan biri bo‘lgan integral usulida aniqlash quyidagicha bo‘ladi:

$$\Delta FSS_{STF}=\Delta STF*SS_0+1/2* \quad * \Delta STF* \Delta SS \quad (3)$$

$$\Delta FSS_{SS}=\Delta SS*STF_0+1/2* \quad * \Delta STF* \Delta SS \quad (4)$$

Bu yerda, ΔFSS_{STF} foyda solig‘i summasini o‘zgarishiga soliqqa tortiladigan foydaning ta‘sirini aniqlash tartibi keltirilgan.

ΔFSS_{SS} esa, foyda solig‘i summasini o‘zgarishiga soliq stavkasining ta‘sirini aniqlash tartibi keltirilgan.

Tahlil va natijalar. Foyda solig‘i bazasi va summasiga quyidagi omillar ta‘sir

ko'rsatadi: mahsulotni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotning tannarxi, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va xarajatlari, favqulodda foyda va zararlar, amortizatsiya siyosati, foyda solig'ining hisobot davridagi stavkasi. Yuqoridagi omillarni ikki guruhga ajratgan holda ularni foyda solig'iga ta'sirini hisoblash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi guruh omillari foyda solig'i summasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lsa, ikkinchi guruh omillar unga

salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Masalan, mahsulotni sotishdan sof tushumning oldingi yilga nisbatan ko'payishi, boshqa omillarning o'zgarishsiz qolishi sharti bilan foyda solig'i summasini ko'payishiga olib keladi. Sotilgan mahsulotning tannarxi ko'rsatkichi esa yuqoridagi shart bilan foyda solig'i summasini kamaytiradi.

«FAZO-LUXE» MCHJning foyda solig'i summasini shakllanishi va uning o'zgarishini ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

«FAZO-LUXE» MCHJning foyda solig'i tahlili²

(ming so'm)

| t/r | KO'RSATKICHLAR | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil | 2021 yilning 2019 yilga nisbatan o'zgarishi | | 2021 yilning 2020 yilga nisbatan o'zgarishi | |
|-----|---|-------------|-------------|-------------|---|-----------------|---|-----------------|
| | | | | | So'mda (+/-) | Foizda (+/-) | So'mda (+/-) | Foizda (+/-) |
| 1 | Soliq solinadigan baza | 57508091,6 | 89229872,8 | 84583953,5 | 27075861,9 | 47,08 | -4645919,3 | -5,21 |
| 2 | Soliq solinadigan foydani kamaytirish (ekologiya va investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar) | 18402589,3 | 28553559,3 | 27066865,1 | 8664275,8 | 47,08 | -1486694,2 | -5,21 |
| 3 | Soliq solinadigan foyda | 39105502,3 | 60676313,5 | 57517088,4 | 18411586,1 | 47,08 | -3159225,1 | -5,21 |
| 4 | Foyda solig'i stavkasi | 7,5 | 7,5 | 14 | 6,5 | 86,67 | 6,5 | 86,67 |
| 5 | Foyda solig'i summasi | 2932912,7 | 4550723,5 | 8052392,4 | 5119479,7 | 174,6 | 3501668,9 | 76,9 |

1-jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, 2021 yilda korxonaning

foyda solig'i summasi 2019 yilga nisbatan 174,6 foizga ya'ni 5119479,7 ming so'mga

²Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

ortganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday o'zgarishiga asosan korxonaning soliq solinadigan bazasi hamda foyda solig'i stavkasining ortganligi ta'sir ko'rsatgan. 2020 yilga nisbatan korxonaning foyda solig'i summasi 76,9 foizga ko'payib, 8052392,4 ming so'mni tashkil etgan. 2021 yildagi foyda solig'i summasini 2020 yilga nisbatan o'zgarishiga soliq solinadigan baza kamayishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, soliq stavkasining 7,5 foizdan 14 foizga ortishi foyda solig'i summasini ko'payishiga sabab bo'lgan.

«FAZO-LUXE» MCHJning soliq solinadigan foyda bazasini kamaytirishga (ekologiya va investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar) hisoblanadigan mablag'lari 2021

yilda 2019 yilga nisbatan 47,8 foiz, ya'ni 18411586,1 ming so'mga ortib, foyda solig'i summasini kamayishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, 2020 yilga nisbatan 5,21 foiz, ya'ni 3159225,1 ming so'mga kamayishi foyda solig'i summasi ortishiga olib kelgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda xarajatlarning me'yordan oshgan qismi amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha soliqqa tortiladigan bazaga qayta qo'shiladi va foydaning kamayishiga olib keladi.

«FAZO-LUXE» mas'uliyati cheklangan jamiyatning foyda solig'i o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlilini quyidagi jadvallar orqali amalga oshiramiz (2-3-jadvallar).

2-jadval

«FAZO-LUXE» MCHJning foyda solig'i o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili³

| t/r | Ko'rsatkichlar | 2020 yil | 2021 yil | O'zgarishi | |
|-----|--|------------|------------|-------------|-------------|
| | | | | so'mda(+/-) | foizda(+/-) |
| 1 | Soliqqa tortiladigan foyda (baza) summasi (ming so'm) | 60676313,5 | 57517088,4 | -3159225,1 | -5,21 |
| 2 | Foyda solig'i stavkasi (foizda) | 7,5 | 14,0 | 6,5 | 86,67 |
| 3 | Foyda solig'ining summasi (ming so'm) | 4550723,5 | 8052392,4 | 3501668,9 | 76,95 |
| 4 | Foyda solig'i o'zgarishiga ta'siri, (ming so'm) | | | 3501668,9 | |
| 5 | Soliq solinadigan foyda (baza) summasini o'zgarishining ta'siri, (ming so'm) | | | -236941,9 | |
| 6 | Soliq stavkasi o'zgarishining ta'siri, (ming so'm) | | | 3738610,7 | |

Foyda solig'i summasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni zanjirli bog'lanish usulida hisob-kitobi quyidagicha bo'ladi:

3-jadval

Foyda solig'i summasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni zanjirli bog'lanish usulida hisob-kitobi⁴

| t/r | Almashirishlar | Ta'sir etuvchi omillar | | Foyda solig'i summasi, ming so'm | Foyda solig'i summasining o'zgarishi | |
|-----|----------------|---|-----------------------------|----------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------|
| | | Soliqqa tortiladigan foyda summasi, ming so'm (STF) | Foyda solig'i stavkasi (SS) | | Alohida olingan omillar ta'sirida | O'zgarishlar hisobi, ming so'm |
| 1 | - | 60676313,5 | 7,5 | 4550723,5 | x | x |
| 2 | 1 | 57517088,4 | 7,5 | 4313781,6 | STF | -236941,9 |
| 3 | - | 57517088,4 | 14,0 | 8052392,4 | SS | 3738610,7 |

³Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

⁴Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021 yilda 2020 yilga nisbatan foyda solig'ining summasi 3501668,9 ming so'mga ko'paygan. Bu o'zgarishga ikki omil, ya'ni soliqqa tortiladigan foyda summasi va soliq stavkalarini o'zgarishi ta'sir ko'rsatgan. Shu boisdan, soliq solinadigan baza summasini 3159225,1 ming so'mga kamayishi foyda solig'i summasini 236941,9 ming so'mga kamaytirgan. Soliq stavkasining 6,5 foizga ortishi esa, foyda solig'i summasini 3738610,7 ming so'mga ko'payishiga olib kelgan. Ikki omilning ta'sirida foyda solig'ining summasi o'tgan yilga nisbatan $(3738610,7 - 236941,9) = 3501668,9$ ming so'mga ko'paygan.

Xulosa. Foyda solig'i to'lovchisi hisoblangan tadbirkorlik sub'yektlarida mazkur soliq summasi va uning o'zgarishiga

ta'sir etuvchi omillar tahlili metodikasi taklif etildi. Bunda natija ko'rsatkichi sifatida olingan foyda solig'i summasiga bevosita ta'sir etuvchi funktsional bog'liqlikdagi omillarni additiv va mulplikativ modellar yordamida ifodalandi hamda ularni ta'sir qiymatlarini hisoblashda iqtisodiy tahlilning ana'anaviy va matematik usullarini qo'llash yo'llari ko'rsatib berildi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda foyda solig'i summasiga omillar ta'sirini tahlil usullaridan foydalangan holda hisob-kitob qilish bo'yicha tavsiya etilayotgan metodika boshqaruv organlariga soliq xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shuningdek, soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlashda muhim ilmiy-uslubiy dastak bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Faromni, 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Курбонов З.Н. «Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари» дис. И.ф.д. Тошкент: БМА, 2008. 272 б.
3. Курбонов З. ва Акрамовлар Ф. Солиқ юкини оптималлаштиришда солиқ харажатлари таҳлилидан фойдаланиш. Бизнес-эксперт журнал. 2015 й №5.
4. Cowell, F. (1985). The economic analysis of tax evasion. Bulletin of Economic Research. Vol. 37 (3). pp. 163-193.
5. Богданова Г.А. Проблемы использования налоговых льгот // Молодой ученый. - 2015. - №11. - С. 759-761. - URL <https://moluch.ru/archive/91/19816/> (19.12.2017).
6. Исаев Ф.И. «Солиқ таҳлили методикасини такомиллаштириш» диссертация автореферати, Тошкент, 2019.22 б.
7. Исроилов Б.И. «Солиқларнинг молиявий ҳисоби ва таҳлилининг методологик асослари». Диссертация, и.ф.д., Самарканд-2006. 272 б.
8. Abdullayev, A. V., & Ochilov, O. I. (2021). A new approach to the methodology of tax analysis. Asian Journal of Research in Business Economics and Management, 11(9), 19-25.
9. Абдуллаев А. Б. Совершенствование налогов и обязательных платежей субъектов малого предпринимательства // Научные достижения и открытия современной молодежи: Актуальные вопросы и инновации. – 2017. – С. 181-183.
10. Абдуллаев А.Б. Солиқ ҳисоби ва таҳлили: илмий тадқиқ ва янгича ёндашувлар хусусида. ТМИ, «Халқаро молия ва ҳисоб» илмий электрон журнали. № 4-5, август-октябрь, 2018й., www.interfinance.uz.



11. Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy sayti – <https://soliq.uz/page/soliq-solishga-oid-umumiy-savollar>.